

## **GOSPITAL TA'LIMDA GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARI**

*Sag'dullayev Quvonchbek Akmal o'g'li  
 Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi huzuridagi  
 "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi  
 umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada gospital ta'linda geografiya fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llashning ahamiyatini va samaradorligini tahlil qilingan. Maqolada interfaol metodlarning turlari, ularni geografiya fanida qo'llash usullari va amaliy misollar keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, interfaol metodlar o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'rganishiga, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va ta'lim jarayonini samarali qilishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** gospital ta'lim, interfaol metodlar, individual yondashuv, filvord, topishmoq, "1 daqiqa" metodi, ekologik madaniyat, pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim berish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqla, sog'lig'i bo'yicha cheklov larga ega bo'lgan, shifoxonalarda yoki uy sharoitida tahsil olayotgan o'quvchilar bilan ishlashda an'anaviy o'quv yondashuvlari yetarli emas. Bunday holatlarda interfaol usullardan foydalanish orqali geografiya fanining o'quvchilarga qiziqarli va tushunarli bo'lishini ta'minlash mumkin.

Gospital ta'lim – uzoq muddatli davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarni o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogikaning bo'limi. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi bo'lib, o'z e'tiborini o'quvchilarning alohida toifasiga – uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi. Bu holatlarda quyidagi muhim tamoyillar ustuvor bo'ladi:

- ❖ **Individual yondashuv** – har bir o'quvchining sog'lig'i, psixologik holati inobatga olinadi;
- ❖ **Qisqa, mazmunli darslar** – e'tiborning tarqoq bo'lishi ehtimolini kamaytirish uchun;
- ❖ **Ko'rgazmalilik** – ko'rish, eshitish orqali tez va samarali o'zlashtirishni ta'minlash.

Geografiya – tabiiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy holatlar, joy va makon bilan bog'liq bilimlarni qamrab oluvchi fan bo'lib, uni interfaol metodlar orqali o'qitish o'quvchilarning faolligini oshiradi, tasavvurlarini boyitadi, mustaqil fikrlashga yo'naltiradi, o'rganilgan bilimlarni amaliyotga tadbiq qilishga yordam beradi

Gospital ta’limda geografiya fanini interfaol metodlar asosida o‘qitish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu nafaqat o‘quvchining bilim olishiga, balki uning ruhiy holati va fanga bo‘lgan qiziqishining oshishiga ham xizmat qiladi. Interfaol metodlar orqali geografiya darslari jonlanadi, o‘quvchilar o‘zlarini faol ishtirokchi sifatida his etadilar. Shunday ekan, gospital ta’limdagi har bir pedagog interfaol yondashuvlarni puxta o‘zlashtirishi va amaliyotga tatbiq etishi zarur.

Geografiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatida foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Geografiyani o‘qitishda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta’minalash, matnlar axborot berishga emas, balki o‘quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi, qiziqarli o‘quvchilar uchun qulay bo‘lishi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi, ta’limning kundalik hayot va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqligini ta’minalashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish kompetentligini shakllantirilishiga, boshqa o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minalashga yo‘naltirilgan bo‘lishi; rasmlar ko‘rinishidagi illyustratsiyalar: chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo‘lishi; yangi tushunchalar, atamalar lug‘at ko‘rinishida ifodalangan bo‘lishi lozim.

Gospital maktab o‘quvchilarining sog‘ligidan kelib chiqqan holda darsliklarda berilgan ma’lumotlar imkon darajasida oson, rangli, qiziqarli, chiroyli bo‘lishi, matnlar o‘quvchilarga ma’lum ijobjiy hissiy ta’sirlarni o‘tkazishi va o‘quv faniga qiziqish uyg‘otishi, bo‘lim, bob, mavzu matnlarining turli shakl hamda ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta’milanishi, rasm, tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq hamda tiniq ifodalanganishi lozim.

Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda.

**Interfaol metodlar** – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining o‘zaro faoliyatini ta’minlovchi, ularni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi hamda ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yo‘naltirilgan metodlar. O‘quv jarayonining interfaol ta’lim turlariga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o‘yini” kabi taassurot uyg‘otadi. Gospital maktabning geografiya darslari kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta’lim mazmunida o‘ziga xos hamda o‘quvchi shaxsida o‘ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta’lim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish,

komil inson etib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko’tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Gospital ta’limda o’tkazilgan dars o‘quvchilarni ham, pedagoglarni ham qanoatlantirish uchun javob berish kerak. Gospital maktabda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularni aqliy qobiliyatini o‘sirish, geografiyani o‘qitishda eng muhim hisoblanadi. Buning uchun o‘qitishning faol metodlaridan, ta’limning noan’anaviy shakl va usullaridan keng miqyosda foydalanishni taqozo etadi. Gospital maktabning geografiya darslari kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta’lim mazmunida o‘ziga xos hamda o‘quvchi shaxsida o‘ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarini ta’lim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko’tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Gospital maktabda geografiya fanini o‘qitishda qo’llanilgan ba’zi interfaol metodlariga quyidagi misollarni keltiramiz.

**“1 daqiqa” metodi.** Bu metodni bir nechta usullar orqali amalga oshirish mumkin. Masalan: uzoq muddatli davolanayotgan o‘quvchilar ilk bor geografiya darsiga qatnashganda bu metod orqali mavzularni qay darajada bilishini sinovdan o’tkazish mumkin. O‘quvchilarga 1 daqiqa vaqt beriladi, shu daqiqa ichida ular geografiyadan o‘zlar bilgan 10 ta atama yozib berishlari kerak bo‘ladi yoki yangi mavzuni tushuntirishdan oldin o‘tilgan mavzuni takrorlash maqsadida qanday atamalar esda qolganini 1 daqiqa davomida 10 ta so‘z bilan ifodalab berishlari lozim. Gospital ta’limda o‘quvchilar xotirasi bilan bog‘liq muammolar bo‘lganligi sababli o‘quvchilar uchun “xotira mashqi” ham hisoblanadi.

**“Filvord” metodi** – bu metodda sinfdagi barcha o‘quvchilar uchun A4 formatdagi qog‘ozga “Filvord” krossvordi beriladi. Ularga berilgan krossvorddagi vazifa geografiya fani mavzulari asosida tayyorланади. O‘quvchilar bu filvordni kalit so‘zlar asosida harflarga chizish orqali javoblarni yozadilar. Bu filvordni geografiyaning barcha darslari uchun amalda qo’llasa bo‘ladi.

**“Geografik pochta” metodi.** O‘yin ishtirokchilariga konvert nomlariga joylashtirish uchun davlatlar nomi yozilgan kartochkalar beriladi. O‘quvchilar kartochkalarni qit’a nomlariga mos keluvchi konvertlarga soladi. Bunda davlat nomlari “manzil”ini to‘g‘ri va tez topgan o‘quvchilar g‘olib hisoblanadi. O‘yinni darsning mustahkamlash qismida yoki to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

**“Topishmoqlar” metodi.** O‘quvchilarni geografiyaga qiziqtirishda har xil topishmoqlardan ham foydalanish mumkin. Topishmoqlar aql-zakovat, fikr o‘tkirligining sinov quroli hisoblanadi. Chunki u o‘quvchini topqirlikka o‘rgatadi. Gospital maktab dars jarayonida o‘quvchilarda ruhiy charchash kuzatiladi. Topishmoqlar ruhiy charchashning oldini oladi. O‘qituvchiga esa o‘quvchilarning

zehni, dunyosini o‘rganishga, ularni individual xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

To‘rt tomoning aniqlab berar,  
Darajada joylar aks etar.  
Osmondami, suvda, o‘rmonda,  
Sayohating chog‘i asqotar. (*kompas*)

Bir xil baland nuqtani,  
Tutashtirar bir chiziq.  
Unga relyef bo‘lsa bas,  
Hech rang ishlatmas qiziq. (*gorizontal*)

Yunonchadan qilsang tarjima,  
“Shimoliy” dir uning ma’nosи.  
U mintaqa katta bir zona.  
Juda sovuq, shimol sahrosi. (*Arktika*)

Yuqorida keltirilgan metodlar gospital ta’lim o‘quvchilariga geografiya fanini tez va oson o‘rganishlariga yordam beradi. Bu metodlar orqali ularning darsga qiziqishlarini va faol qatnashishini, ularning kayfiyatlarini ko‘tarilganini kuzatishimiz mumkin.

Ushbu metodlar nafaqat guruhsda tashkil etilgan darslarda, balki individual mashg‘ulotlar uchun ham mo‘ljallangan. Individual mashg‘ulotlarda qo‘llanilganda samarali natijalarga erishilgan.

**Xulosa.** Gospital ta’limda geografiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ularga moslashtirilgan usullarni qo‘llash muhimdir. O‘yinlar, tasvirli materiallar, amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, tushunishni osonlashtiradi va ularning bilim olish jarayonini samarali qiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarning sog‘lig‘ini hisobga olish, o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ota-onalar va shifokorlar bilan hamkorlikda ishlash o‘quv jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abdulkarimov A. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. T.:, 2020.
2. Abdullayev M. Geografiyani o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. T.: 2023.
3. Alimova N., Sag‘dullayev Q., Xoliqulova D. Gospital ta’limda tabiiy (science) fanlarni o‘qitishning interfaol usullari. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. Т.: 2024.

4. Do'stiyeva S., Lufilloyev I., Juraxujayev D. Geografiya ta'limida interfaol metodlarni qo'llashning samaradorligi va amaliy jihatlari. SCIENCE AND EDUCATION, 5(12), 219–223.
5. Karimov Sh. Geografiya fanini o'qitishda zamonaviy usullar. Samarqand, 2021.
6. Xoliqulova D., Sag'dullayev Q., Gospital ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishda topishmoqlarning ahamiyati. TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali. T.: 2025.
7. Internet ma'lumotlari.